

## **DIALECTICS IN THE GLOSSARY OF THE EPIC “KUNTUGMISH”** *(Based on an excerpt from the 8<sup>th</sup> grade textbook “Literature”)*

**Rushana Olimova,**

Halima Khudoiberdiyeva is a student at the creative school

Scientific adviser: **Husniddin Khaitov,**

Halima Khudoiberdiyeva is a teacher at a creative school

**Annotation:** The article analyzes the dialectal words found in an excerpt from the epic “Kuntugmish” in the textbook for the 8th grade "Literature". The sentences in the text are separated and explanations of dialectisms are given. The dialectic of epic vocabulary is compared with the words of the literary language.

**Keywords:** epic, excerpt, "Kuntugmish", dialect words, literary language, analysis, comparative analysis, vocabulary.

## **“KUNTUG‘MISH” DOSTONI LEKSIKASIDA DIALEKTIZMLAR** *(8-sinf darsligidagi parcha asosida)*

**Rushana Olimova,**

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o‘quvchisi

**Ilmiy rahbar: Xusniddin Xaitov,**

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 8-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan “Kuntug‘mish” dostoni parchasida uchragan shevaga xos so‘zlar tahlili keltirilgan. Matn tarkibidagi gaplar ajratilib, dialektizmlarga izohlar berilgan. Doston leksikasidagi dialektizmlar adabiy tildagi so‘zlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** doston, parcha, “Kuntug‘mish”, shevaga xos so‘zlar, adabiy til, tahlil, qiyosiy tahlil, leksika.

## **ДИАЛЕКТИКА В СЛОВАРЕ ЭПИЧЕСКОЙ “КУНТУГМИШСКОЙ”** *(На основе отрывка из 8-го класса учебника «Литература»)*

**Аннотация:** В статье анализируются диалектные слова, встречающиеся в отрывке из эпоса «Кунтугмиш» в учебнике для 8-го класса «Литература». Предложения в тексте разделены и даны пояснения диалектизмов. Диалектика эпической лексики сравнивается со словами литературного языка.

**Ключевые слова:** эпос, отрывок, «Кунтугмиш», диалектные слова, литературный язык, анализ, сравнительный анализ, лексика.

“Xalq dostonlari har bir millatning ma’naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bamisoli oynadir. Ularda har bir xalqning urf-odatlarini, milliy o‘ziga xosligi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.” [1, 7] Shu bilan birgalikda, shu xalqqa xos shevaga oid birliklar ham xalq dostonlari matnida mujassam. Xususan, “Kuntug‘mish” dostonida shevaga oid bir qancha so‘zlar uchraydiki, har biri adabiy tildagi mavjud so‘zlardan farqlanadi.

“Sheva – biror til doirasidagi xalq, jonli tilining o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lgan eng kichik qismi hisoblanadi.” [2, 5] Shu ma’noda dialektal birlikning mazmuni sharhlaymiz:

“Dialektizmlar — adabiy tildati dialektlarning o‘ziga xos hududiy unsurlari. Dialektizmlarlar tilshunoslikning barcha sohalari (fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va boshqalar)ga taalluqli. Badiiy ijodda dialektizmlarlar narsa, voqea va hodisaga mahalliy urg‘u berish maqsadida qo‘llaniladi, bundan tashqari personaj nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Biroq, bunday qo‘llash tufayli dialektizmlarlar adabiy tilga oid bo‘lib qolmaydi. Dialektizmlarlarni qo‘llash uslublararo ham cheklangan. Badiiy uslubda ancha keng, publitsistik uslubda qisman qo‘llangani holda ilmiy, rasmiy uslublarda deyarli uchramaydi.” [2, 5]

Demak, dialektizmlar, ya‘ni shevaga xos so‘zlarning aksariyati hozirgi kunda Qipchoq lahjasi vakillari nutqida faol qo‘llanilib kelinayotganligini ko‘rish mumkin.

*Ikkovi bir-biroviga so‘z qotib, Xolbeka so‘radi: “Sen kimsan, joy-manziling qayda, oting kimdir?”* [1, 15]

Ushbu gap tarkibida **qayda** so‘zi shevaga xos so‘z bo‘lib, adabiy tilda so‘roq olmoshi sifatida **qayerda** tarzida ishlatiladi.

Yoki “uzuk” so‘zining “juzuk” tarzida ifodalanishi. “...Bu guruh o‘zbek shevalari -y-lash va -j-lash xususiyatiga ko‘ra ikkiga ajratiladi: 1) -y lovchi shevalar; 2) -j lovchi shevalar” [2, 35] “Juzuk” so‘zi ham “j” lovchi shevalar turkumiga kiradi.

*Ikkovi bir-birovini o‘ylab; to‘rasining juzugini Xolbeka olib qo‘liga soldi, Xolbekaning juzugini to‘ra olib qo‘liga soldi.* [1, 15]

Gapda qo‘llanilgan zargarlik buyumi nomini ifodalovchi shevaga xos so‘z —

**juzuk**. Uzuk so‘zi oldidan [j] tovushi orttirilgan. Ammo **uzuk** so‘zi ba‘zi bir qishloqlarda **nigin** tarzida ham aytiladi.

*Qoraxon bechora yolg‘iz farzandini bu holda ko‘rib, yoqasini pora-pora qilib, qushnochni olib kelib qoqtirib, baxshini olib kelib boqtirib, mullani olib kelib o‘qitib, eshonni olib kelib halqa qilib qarataberdi.* [1, 17]

**Qarataberdi** — shevaga xos so‘zi adabiy tilda **qaratdi** sifatida ishlatiladi. **Berdi** ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi yetakchi fe‘l qo‘shilgan.

So‘zi **budir**:

Bog‘ **ichinda** olma-anor istaydir,

Bo‘yi mahbub, mushki dildor istaydir. [1, 18]

**Budir** — adabiy tilda bu edi deb ishlatiladi. Doston parchasidagi esa dialektal holatda. **Ichinda** — dialektizmida til oldi [n] undoshi orttirilgan bo‘lib, **ichida** sifatida qo‘llanilishi ma‘lum. Ushbu shevaga xos so‘zni leksik-fonetik dialektizm deyish mumkin.

“Tovush ortishi. Fonetik yoki morfologik shart-sharoitlar ta‘siri bilan so‘zda yangi tovushning paydo bo‘lishi: isi-issiq, achi-achchiq, doyr-doir kabi.” [3, 110]

**Quloq songlar** bu to‘raning tiliga,

*Bulbul oshno bo‘lar bog‘ning guliga.* [1, 18]

Aksariyat doston matnida uchrovchi **quloq songlar** dialektizmi adabiy tilda **quloq solinglar** lo‘rinishida, bu birlikning ikkinchi qism asosida til oldi [l] undoshi tushirilishi natijasida, -ing qo‘shimchasidagi [i] unlisi ham tushgan, har ikki holatda ham fonetik hodisa yuz bergan va morfologik-fonetik dialektizmni shakllantirgan deyish mumkin.

*Har so‘zingdan tandagi jon aylansin,*

*Ne tilovman tilab olgan yolg‘izim.* [1, 18]

Ushbu parchada **tilovman - tilak bilan** degan tushunchani anglatadi. Ko‘rinib turibdiki, fonetik hodisa mustaqil so‘z va yordamchi so‘z o‘rtasida yuz bergan. Bu esa morfologik-fonetik dialektizmni hosil bo‘lishiga xizmat qilgan.

*Eshitib ol bu otanfning so‘zini,*

*Do‘st-dushmanga tuban qilma yuzini,*

*Yig‘diray No‘g‘ayning uli-qizini,*

*Obberay qizlarning jodu ko‘zini.* [1, 18]

Qipchoq shevalarida o'g'il so'zi hozir ham ul ko'rinishida. Ayni shu holat dostondagi parchada ham kuzatiladi: *Uli-qizini – o'g'li-qizini* ifodalaydi.

–Ey farzand, *burungilardan* bir so'z bor: “Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo'r yarar kuningga”, – degan ekan. [1, 19]

Sof dialektizmlar ham parchada bir nechalab uchraydi. Xususan, *burungilardan – avvalgilardan* ma'nosida kelayotgan shevaga xos so'z – sof dialektizmdir.

*Bir vaqtinda* edim No'g'ayning shoyi,  
Xizmatimda edi uch lak sipoyi. [1, 21]

Bu misrada *bir vaqtinda* adabiy tilda bir vaqtlarda deb qo'llanilib, [n] tovshini orttirilganligini ko'rish mumkin.

*Shunda to'rasiga qarab: “Men senga iyarolmayman, bir manzilga yetolamayman, qumda o'lib qolaman, menga qarab sen ham nobud bo'lma, sen elga yetib, odamlarga qo'shilsang, yurtingga borsang, men sendan roziman, zinhor menga qayrilma, orqangga boqmay keta ber, mening kasofatimga shuncha ranjlar ko'rding, qattiq mashaqqatlar ko'rding, mening uchun ko'rding.* [1, 22]

Mazkur parcha *iyarolmayman* shevaga xos so'ziga duch kelamiz. –*Ergasholmayman* ma'nosini ifodalaydi. Fe'l so'z turmkumiga mansub bo'lib, *iyar*, ya'ni ergash, oritdan yur ma'nosiga ega.

*Toza gulday so'lar bo'ldim men emdi,*  
*Daryoday bo'p bo'lar bo'ldim men emdi.* [1, 22]

Satrlaridagi *emdi* so'z dialektal ravishdir. Ya'ni, endi, hozir degan tushunchalar o'rnida foydalanilgan.

*Shahzodaning daryoga tushganini ko'rib, to'ra uzagandan keyin, bachchani belidan tishlab olib keta berdi.* [1, 25]

*Bachcha* – bola, ya'ni sof dialektal so'z, qipchoq shevalarida hozir ham keng qo'llaniladi.

“Nega muncha yig'laysan?” – deb bir so'z dedi. [1, 25]

*Muncha* – buncha, ya'ni leksik-foentik dialektizm bo'lib, qipchoq shevalarida [b] undoshi o'rnida [m] undoshi qo'llanilishi ko'p kuzatiladi. Masalan: *bo'yin – mo'yin*.

*Otini Kuntug'mish to'ra der edi.* [1, 13]

Gap tarkibidagi *ot* so'zi ham dialektizm, adabiy shakli – ism. Xalq dostonlarida juda ko'p uchraydi.

*Lekin Xolmo'minning enasi qora bosib o'ldi.* [1, 13]

*Ena* so'zi otaning yoki onaning onasiga nisbatan sihlatiladi. Bu gapda esa bu ma'noda emas. Umumdialektal ma'noda bo'lib, Xolmo'minning onasini ifodalab kelgan. Dialektizمنىing bu turi ham boshqa doston matnlarida uchraydi.

*Sovchilarga Xolbeka: “Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, utsa tegaman, utdirsa so'yaman”, – deb elga shuhrat berdi.* [1, 14]

Matndagi *utsa, utdirsa* birliklari *yutsa, yutqazsa* so'zining dialektal shakli. Qipchoq sheva vakillari nutqida hozir ham saqlangan.

*Podsho ko'cha, guzarlarga jarchi qo'yib: “Har kim Xolbeka deb aytsa, olti oy zindonda boqdiraman, suyagini toshga chaqdiraman, terisini tiriklay so'yaman, ichiga somon tiqdiraman, ikki ko'zini o'ydiraman, tepasiga moyni quyaman”, – deb qichqira berdi.* [1, 15]

*Jarchi* – aytuvchi. Xabarlarini ovoza qilib, baland ovozda aytadiganlarga nisbatan ishlatiladi. Dostonda ham hukmdor taklifini rad etgan Xolbeka nomini tilga olgan kishi xabari jarchilar tomonidan el orasida ovoza qilinadi.

*Shul bo'ldi Haqning taqdiri,*  
*Ayrimay manglayning sho'ri,*  
*Bittasin op ketdi bo'ri,*  
*Uni ko'rmak gumon bo'ldi.* [1, 26]

Manglay peshona ma'nosidaga dialektizm, hozir ham qo'llaniladi: *Manglayning sho'ri* – peshonaning sho'ri.

“Taqsir podshoyim, yurtigingiz *qutli* bo'lsin”, – desalar, to'ra teskariga qarab, *dim* indamaydi. [1, 29]

Doston matnidan olingan ushbu gapda *qutli*, *dim* soʻzlari ham shevaga xos soʻz boʻlib, birinchisi *qutlugʻ* maʼnosini, keyingisi esa *umuman* maʼnosida qoʻllanilgan.

Shevaga xos soʻzlarning bir qancha turi darslikda keltirilgan parchada uchrashi, har birining dialektal maʼnosi mavjudligini tahlil qilar ekanmiz, oʻquvchilarni tilimizning rang-barangligi, qadimiyligi bilan tanishtirishda muhim ekanligiga amin boʻlamiz. “Kuntugʻmish” dostoni parchasida berilgan shevaga xos soʻzlar milliy maʼnaviy-maʼrifiy qadriyat sifatida oʻquvchini tarbiyalash xususiyatiga ega, deyish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlarroʻyxati:**

1. Olim S, Ahmedov S, Qoʻchqorov R. Adabiyot darsligi 8-sinf oʻquvchilari uchun. –Toshkent:, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2019. 351 b.
2. Toʻychiboyev B, Hasanov B. Oʻzbek dialektologiyasi. –Toshkent:, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 112 b.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent:, Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2002, 158 b.